

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

IMAMOV FOZILJON ZOKIRJONOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TAQIR O‘TLOQI TUPROQLARDA FOSFOGIPSNI
QO‘LLASHNING TUPROQ XOSSALARI VA G‘O‘ZA EKINIDA
MINERAL O‘G‘ITLAR SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI**

06.01.04 – Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
Сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of (PhD) on agricultural
sciences**

Imamov Foziljon Zokirjonovich

Sug‘oriladigan taqir o‘tloqi tuproqlarda fosfogipsni qo‘llashning tuproq xossalari va g‘o‘za ekinida mineral o‘g‘itlar samaradorligiga ta’siri..... 3

Имамов Фозилжон Зокиржонович

Влияние применения фосфогипса на свойства почвы и эффективность минеральных удобрений на посевах хлопчатника на орошаемых такырно - луговых почвах 21

Imamov Foziljon Zokirjonovich

Influence of phosphogypsum application on soil properties and effectiveness of mineral fertilizers on cotton crops on irrigated takyr-meadow soils..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.05/04.03.2022Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

IMAMOV FOZILJON ZOKIRJONOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TAQIR O‘TLOQI TUPROQLARDA FOSFOGIPSNI
QO‘LLASHNING TUPROQ XOSSALARI VA G‘O‘ZA EKINIDA
MINERAL O‘G‘ITLAR SAMARADORLIGIGA TA’SIRI**

06.01.04 – Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2020.3.PhD/Qx615 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ortikov Tulkin Kuchkarovich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Sanaqulov Akmal Lapasovich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent Sayimbetov Alisher XXX qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning «14»_09_2023 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma‘muriy binosi, 2 qavat, kichik anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 549243-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «31»_08_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «31»_08_ dagi № 1_ -raqamli reyestr bayonnomasi).

G.R.Xolmurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi q.x.f.d., professor

A.A.Iminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., professor

F.B.Namozov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi paytda dunyo miqyosida «tuproqlarining meliorativ holati yomonlashuvi va shu sababli o'simliklarning o'g'itlardan foydalanish samaradorligi keskin kamayishi dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlari jumladan Hindiston, Xitoy, AQSh, Pokiston Avstraliya, Meksika, va h.k. larning 900 mln gektardan ortiq yer maydonlarida tarqalganligi kuzatilmoqda»¹. Ma'lumki tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilamasdan mineral o'g'itlarni o'simliklar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari cheklanib boradi. Shu munosabat bilan sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida tuproq singdirish kompleksidagi natriy kationining miqdoriga ekvivalent ravishda qo'llaniladigan fosfogips me'yorini aniqlash va buning natijasida tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda qo'llaniladigan mineral o'g'itlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan meliorativ tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mintaqalarida tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproqda oziq moddalarni ko'proq to'playdigan resurtejamkor texnologiyalarini qo'llash, tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish maqsadida mineral va organik o'g'itlardan samarali foydalanish, kimyoviy meliorant sifatida ishlatiladigan fosfogipsni har yili 4-8 t/ga va mineral o'g'itlarni qator orasiga ishlov beriladigan ekinlarga tabaqalashtirilgan holatda tuproq ostiga qo'llash hamda o'simliklardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz janubiy hududlarining tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda, so'nggi 3 yil mobaynida g'o'zaning ingichka tolali navlarini yetishtirish ko'lami qariyb 52500 gektarga oshdi. Shu yillar davomida ingichka tolali g'o'zaning maqbul oziqlantirish me'yorlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, ingichka tolali g'o'zaning tuproqdagi oziq moddalarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda hamda tuproqning meliorativ holatiga ko'ra kimyoviy meliorantlar, mineral va organik o'g'itlarni qo'llashning ilmiy asoslangan me'yor va muddatlarini ishlab chiqish, tuproqlarning agrokimyoviy xossalarini o'rganish, singdirish kompleksidagi natriy kationining ta'sirini chuqur tahlil qilish va g'o'za parvarishida qo'llaniladigan mineral o'g'itlar samaradorligini oshirish yo'llari to'liq o'rganilmagan. O'zbekiston Respublikasining 2022 - yil 28 - yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu o'rinda har bir mintaqaning tuproq-iqlim, ayniqsa tuproq

¹https://www.researchgate.net/publication/355487013_Soil_salinity_A_global_threat_to_sustainable_development

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi №-60-son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni.

meliorativ holatiga mos bo'lgan kompleks agrotexnik tadbirlar tizimini ishlab chiqish asosida ekinlardan, xususan g'o'zadan yuqori hosil olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»¹gi farmoni hamda 2020 yil 28 - yanvardagi PQ-4575-son «O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»²gi qarori va mazkur sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladigan tuproqlarning agrofizik, agrokimyoviy xossalari va ularning o'zgarishiga turli mineral hamda organik o'g'itlarning ta'sirini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqotlar xorijiy olimlar N.A.Kachinskiy, A.A.Voronin, O.V.Dubrovina, I.Yu.Sayfullin, A.Yu.Fursova V.P.Kalinichenko, M.N.Yurov, V.V.Kilkov, A.B.Xoroshkin, V.I.Turusov, N.I.Akanova, M.Yu.Loktinov, A.X.Sheudjin, hamda respublika olimlaridan F.M.Skryabin, Q.M.Mirzajonov, K.M.Roziqov, T.P.Piraxunov, D.S.Sattarov, A.Ergashev, M.M.Toshqo'ziev, N.M.Ibragimov, S.A.Azimbaev, F.X.Xoshimov, B.X.Tillabekov, B.I.Niyazaliev, Ch.R.Begimkulov, S.M.Boltayev, D.A.Tungushova, A.Sayimbetov, J.Abdumalikov, J.X.Aliev, N.Boboeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Biroq, Surxondaryo viloyatida mavjud bo'lgan sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarning meliorativ holatiga va singdirilgan asoslar tarkibiga kimyoviy meliorantni ta'sirini baholash hamda g'o'zadan mo'l va sifatli hosil yetishtirishda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Agrokimyoviy va yalpi tahlillar laboratoriyasidagi ilmiy-texnikaviy dastur rejasining "Biologik dehqonchilikda tuproq unumdorligini saqlash, oshirish hamda g'o'za va uning majmuidagi ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishda o'g'itlar va noan'anaviy agrorudalarni samarali qo'llashning innovatsion agrotexnologiyasini ishlab chiqish" (2020-2022 yy) mavzusidagi tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi PQ-4575-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020 yilda amalga oshirish to'g'risida »gi Qarori

Tadqiqotning maqsadi. Sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida tuproq singdirish kompleksidagi singdirilgan natriy kationi miqdoriga bog'liq holda organik o'g'it (go'ng) hamda turli me'yordagi fosfogipsni tuproq singdirish kompleksi tarkibi va agrokimyoviy xossalarining o'zgarishiga hamda g'o'zadan yuqori va sifatli hosil olishda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarning singdirish kompleksi tarkibi va unga fosfogipsni ta'sirini aniqlash;

mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalariga ta'sirini aniqlash;

mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi gumus, umumiy va harakatchan shakldagi NPK miqdorlariga ta'sirini aniqlash;

mineral va organik o'g'itlar hamda turli me'yorlarda qo'llanilgan fosfogipsni ingichka tolali "Surxon-14" g'o'za navining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda hosil sifatiga ta'sirini aniqlash;

ingichka tolali "Surxon-14" g'o'za navining hosil birligi bilan olib chiqib ketiladigan NPK miqdori va o'zlashtirish koeffitsienti hamda balansini aniqlash;

taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida ingichka tolali g'o'zani "Surxon-14" navini yetishtirishda qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni iqtisodiy samaradorligini baholash va hosildorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Surxondaryo viloyati Bandixon tumanida tarqalgan sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar, fosfogips, mineral va organik o'g'itlar hamda ingichka tolali "Surxon-14" g'o'za navi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar meliorativ holati, unga mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni ta'siri, g'o'zaning oziqa moddalarni o'zlashtirish koeffitsienti va balansini, g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashi hamda ularni iqtisodiy samaradorligini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tajribadagi kuzatuvlar, biometrik o'lchashlar, tahlillar va hisob-kitoblar PSUYAITning umum qabul qilingan uslublari: "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent 2007), tuproqning agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik tahlillari «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» (1963), Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений (2014), «Агрохимические методы исследования почв» (1975), qo'llanmalaridagi standart uslublarda olib borilib, olingan ma'lumotlar В.А.Доспехов (1985) usulida statistik tahlildan o'tkazilib, qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarni iqtisodiy samaradorligi «Экономическая эффективность применения удобрений в сельском хозяйстве» (Москва, 1987) qo'llanmasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida g'o'zada azotli (250 kg/ga), fosforli (175 kg/ga) va klaiyli (125 kg/ga) o'g'itlar fonida organik o'g'it - go'ng

(30 t/ga) va kimyoviy meliorant - fosfogipsni (4 t/ga) maqbul qo'llash (shudgor ostiga 3 yilda bir marotaba) me'yor va muddatlari aniqlangan;

sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga me'yordagi fosfogipsni mineral o'g'itlar ($N_{250} P_{175} K_{125}$) fonida qo'llanilganda tuproqdagi singdirilgan asoslar tarkibining o'zgarishiga ijobiy ta'siri aniqlanib, Ca^{2+} kationi ulushini mineral ($N_{250} P_{175} K_{125}$) o'g'itlarni o'zi alohida qo'llanilganga nisbatan 14,48 % ga ortishiga va Na^+ kationi ulushini esa 5,62 % ga kamayishiga olib kelishi ilmiy asoslangan;

sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga me'yordagi fosfogipsni mineral o'g'itlar fonida qo'llashning tuproqdagi ammoniyli va nitratli azot, harakatchan fosfor va almashuvchan kaliy dinamikasiga ta'siri aniqlanib, mavsum oxirida ammoniyli va nitratli azot miqdori mos ravishda 29,7 va 35,4 mg/kg ni, harakatchan fosfor va almashuvchan kaliy miqdori esa 35,5 va 282 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlangan;

meliorativ holati yaxshilangan tuproqlarda qo'llanilgan mineral o'g'itlarni ingichka tolali g'o'zaning "Surxon-14" navini o'sish-rivojlanishi, hosildorligi va tolasining texnologik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri ilmiy-nazariy tomondan asoslangan va ishlab chiqarishga tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida mineral o'g'itlar ($N_{250} P_{175} K_{125}$) fonida organik o'g'it go'ng hamda kimyoviy meliorant fosfogipsni kuzgi shudgor ostiga qo'llanilganda tuproqdagi ammoniy va nitrat shklidagi azot miqdori mavsum oxirida $N_{250}P_{175}K_{125}$ variantida qo'llanilgandagiga nisbatan 12,6 va 12,0 mg/kg ga, harakatchan fosfor va almashuvchan kaliy miqdorlari esa 11,9 va 70,0 mg/kg ga oshirib, tuproqdagi harakatchan oziq moddalar bilan o'rtacha taminlanganlik darajasini namoyon qilgan;

mineral o'g'itlar ($N_{250}P_{175}K_{125}$) fonida kuzgi shudgor ostiga 30 t/ga go'ng hamda 4 t/ga fosfogipsni kimyoviy meliorant sifatida 3 yilda bir marotaba qo'llanilganda tuproq singdirish kompleksi tarkibidagi singdirilgan natriy kationi ulushi 10,18% ga kamayib, azot, fosfor va kaliyni o'zlashtirish koeffitsientlari mos ravishda 43,3; 38,1 va 73,0% ni tashkil etib, o'rtacha 39,38 s/ga paxta hosili olingan;

mineral o'g'itlar ($N_{250}P_{175}K_{125}$) fonida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantda shartli sof foyda miqdorining ortishi mineral o'g'itlarni o'zi alohida qo'llanilganga nisbatan 5 330 141 so'm/ga ni tashkil qilib, 59,0% rentabellikka erishilgan;

sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi oziq moddalarni o'simlik tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga, g'o'zaning o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'siri aniqlanib, fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalari hamda ingichka tolali g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni umum qabul

qilingan uslublar asosida o'tkazilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mosligi; olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish hamda ilmiy-amaliy ishlar yakuniy natijalarining mos kelishi, tadqiqotlarda to'plangan ma'lumotlar xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mineral va organik o'g'itlarni g'o'zada qo'llashni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlardagi oziq moddalar dinamikasini o'zgarishga va fosfogipsni turli me'yorlarda qo'llanilganda tuproq singdirish kompleksidagi kationlar ulushiga ijobiy ta'sirini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxtachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari va klasterlarda g'o'zaning ingichka tolali Surxon-14 navini parvarishlashda mineral o'g'itlar ($N_{250} P_{175} K_{125}$) fonida 30 t/ga go'ng va fosfogipsni 4 t/ga me'yori ishlab chiqilganligi, o'simlik tomonidan NPK ni o'zlashtirish koeffitsientini mineral o'g'itlarni o'zi alohida qo'llanilgan ($N_{250}P_{175}K_{125}$) variantga nisbatan mos ravishda 3,4; 6,9 va 23,4% ga yuqori bo'lganligi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi bo'yicha g'o'za asosiy poyasining balandligi 14,0 sm ga va ko'saklar sonining 5,4 donaga yuqori bo'lganligi va ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mineral o'g'itlar fonida organik o'g'it-go'ng hamda fosfogipsni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida g'o'zada qo'llashning maqbul me'yor va muddatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

mineral o'g'itlar fonida organik o'g'it-go'ng hamda fosfogipsni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar sharoitida g'o'zada qo'llash yuzasidan "Sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarda fosfogipsni qo'llashning tuproq xossalari va g'o'za ekinida mineral o'g'itlar samaradorligiga ta'siri" bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 9-apreldagi 05/05/1553-son ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiyanomadan Surxondaryo viloyatining sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarida unumdorlikni oshirish va saqlash, mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini oshirishda hamda g'o'zadan yuqori hosil yetishtirishda qo'llanma sifatida foydalanilmoqda;

mineral o'g'itlar fonida organik o'g'it-go'ng hamda kimyoviy meliorant - fosfogipsni sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlarda g'o'zada birgalikda qo'llash texnologiyasi Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida joylashgan "Surxon Cotton Textile Cluster" MChJ XKning 50,0 gektar maydonida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 9-apreldagi 05/05/1553-son ma'lumotnomasi). Natijada, mineral o'g'itlar fonida organik o'g'it - go'ng va kimyoviy meliorant - fosfogipsning ta'siri tuproq singdirish kompleksidagi natriy kationi miqdoriga bog'liq holda o'rganilganligi va uni ishlab chiqarish sharoitida keng targ'ibot qilinishi evaziga g'o'zaning ingichka tolali "Surxon-14" navinidan yuqori va sifatli paxta hosili olingan.

mineral o'g'itlarni yillik $N_{250} P_{175} K_{125}$ kg/ga me'yorida organik o'g'it - go'ngni 30 t/ga va kimyoviy meliorant - fosfogipsni 4 t/ga me'yorida qo'llash texnologiyasi Surxondaryo viloyatining Bandixon tumanidagi paxta yetishtiruvchi

“Xojimurod bobo 2018” va “Bag‘rikeng bandixon” fermer xo‘jaliklarida jami 46,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 9-apreldagi 05/05/1553-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, mineral o‘g‘itlar fonida organik o‘g‘it - go‘ng va kimyoviy meliorant - fosfogipsni qo‘llash hisobiga 35,0 s/ga paxta hosili olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala sharoitida olib borilgan tajribalar Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, ilmiy tadqiqot natijalari bo‘yicha tayyorlangan hisobotlar har yili institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo‘yicha 5 ta, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy maqola va 1 ta tavsiyanoma chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari bo‘yicha 3 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Turli tuproqlarning agrokimyoviy va agrofizik xossalari, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga kimyoviy meliorantlar hamda mineral va organik o‘g‘itlarning ta‘siri**» deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va respublikamiz olimlarining ushbu mavzu doirasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarning sharhi keltirilgan. Bunda, dunyo miqyosida g‘o‘za va g‘o‘za majmuyidagi ekinlardan yuqori hosil olishda mineral va organik o‘g‘itlar hamda fosfogipsning roli, tuproq singdirish kompleksidagi kationlar ulushi va miqdorining tuproq unumdorligiga ta‘siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tajriba olib borish uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari bayon etilgan. Tajriba o‘tkazilgan yillarda g‘o‘za urug‘larini ekilishi mart oyining uchinchi o‘n kunligiga to‘g‘ri kelib bunda havo haroratining o‘rtacha ko‘rsatkichi 10,9°C, eng past va eng yuqori harorat tegishli 4,1 va 24,9°C ni,

tuproqning 10 sm chuqurligidagi harorat 15°C ni tashkil etgan. Aprel va may oylaridagi havo va tuproq harorati g' o' za urug'ining unib chiqishi va maydondagi tup soniga salbiy ta'siri kuzatilmadi, o'rtacha havo harorati 16,7-25,4°C gacha, eng yuqori harorat esa 32,5-38,7°C gacha va eng past harorat 4,4-10,3°C gacha o'zgarib yog'ingarchilik kuzatilmagan.

Dala tajribasi har yili 12 ta variant 4 qaytariqda sistemali ravishda bir yarusda joylashtirilgan. Bitta paykalning eni 7,2 m, uzunligi 50 m, umumiy maydoni 360 m² va hisobga olinadigan maydon 180 m² qilib belgilangan. Dala tajribalari statsionar tarzda amalga oshirilgan. Laboratoriya va dala tadqiqotlarida olib borilgan barcha tahlillar umum qabul qilingan uslublar asosida o'tkazildi.

Dissertatsiyaning «**Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqning agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalariga ta'siri**» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilgan tuproqning umumfizik va mikrobiologik xossa-xususiyati, tuproq singdirish kompleksidagi kationlar miqdori va muhit reaksiyasi (pH) ko'rsatkichlari hamda oziqa elementlarni o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, g' o' zani ham oziqa elementiga bo'lgan talabi umumiy miqdoriga qarab emas, balki harakatchan shakldagi miqdori bilan aniqlanadi.


Sug'oriladigan taqir o'tloqi tuproqlar singdirish kompleksida natriy kationi miqdori va ulushi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Tuproq singdirish kompleksidagi har bir kation ulushi tahlil qilindi, mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng, 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantlarda TSK da kalsiy kationi ulushi yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni singdirilgan asoslar tarkibining o'zgarishiga ta'siri, % (2020-2022 yy.)

№	Tajriba variantlari	Singdirilgan kationlar jami miqdoriga nisbatan % hisobida							
		Ca ²⁺		Mg ²⁺		K ⁺		Na ⁺	
		0-30	30-50	0-30	30-50	0-30	30-50	0-30	30-50
1	Nazorat	58,90	57,60	18,68	21,65	5,34	5,39	17,07	15,36
2	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	66,23	65,44	15,80	15,60	5,45	5,96	12,51	13,0
3	30 t/ga go'ng	68,41	66,32	14,67	15,89	5,20	5,44	11,72	12,36
4	2 t/ga FG	75,80	72,62	11,61	13,38	4,11	5,27	8,48	8,73
5	4 t/ga FG	77,94	74,58	10,84	12,25	4,04	5,16	7,18	8,01
6	30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	78,55	76,42	10,26	10,11	3,13	5,36	8,06	8,11
7	30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	79,29	77,80	10,56	10,14	3,16	4,28	6,99	7,78
8	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng	73,58	69,67	11,42	14,83	5,16	5,36	9,84	10,14
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	79,59	78,19	9,94	10,37	3,15	3,39	7,31	8,04
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	80,71	79,35	9,17	9,56	3,23	3,33	6,89	7,76
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +2 t/ga FG	77,53	75,72	10,14	10,78	4,37	5,55	7,96	7,94
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +4 t/ga FG	78,69	76,31	9,84	10,03	4,39	5,68	7,09	7,98

O'g'itlarni qo'llash tuproq tarkibidagi mineral azot miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantlarda tuproq tarkibidagi mineral azot miqdori 1 kg tuproqda 2020 - 2022 yillarning 15 aprelida 51,9 mg bo'lgan bo'lsa, 15 mayda 74,0 mg; 15 iyunda 82,2 mg; 15-iyulda 86,2 mg; 15 avgustda 70,4 mg; 15 sentyabrda esa 65,1 mg ekanligi kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi mineral azot (N-NO₃+N-NH₄) miqdoriga ta'siri, (2020-2022 yy.)

O'tkazilgan tahlil natijalarining ko'rsatishicha, tuproqdagi harakatchan fosfor dinamikasi ham xuddi mineral azot kabi bo'ldi. Masalan, o'g'itsiz nazorat variantida 15 mayda tuproqning haydalma qatlamida harakatchan fosfor miqdori 20,0 mg/kg, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+30 t/ga go'ng variantida 35,7 mg/kg bo'lgan bo'lsa, mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng hamda 2 va 4 t/ga FG qo'llanilgan 9-10 variantlarda tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori nazorat variantiga nisbatan mos ravishda 18,2 va 18,7 mg/kg, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+30 t/ga go'ng variantiga nisbatan 2,5 va 3,0 mg/kg ga ortganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi harakatchan fosfor (P₂O₅) miqdoriing o'zgarishiga ta'siri (2020-2022 yy.)

№	Tajriba variantlari	P ₂ O ₅ miqdori, mg/kg tuproqda					
		15.04	15.05	15.06	15.07	15.08	15.09
1	Nazorat	20,4	20,0	19,0	17,3	16,6	15,3
2	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	28,6	29,5	30,6	35,6	29,4	23,6
3	30 t/ga go'ng	25,7	27,6	26,6	25,3	26,3	25,5
4	2 t/ga FG	22,5	23,3	22,7	20,6	19,5	18,7
5	4 t/ga FG	23,4	24,1	23,4	21,4	19,9	18,3
6	30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	27,7	29,6	28,6	27,3	27,7	28,7
7	30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	28,6	30,4	28,7	27,3	28,9	29,3
8	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng	33,5	35,7	34,0	37,6	34,7	32,7
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	36,8	38,2	36,1	38,8	36,5	34,7
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	37,5	38,7	37,3	38,5	36,8	35,5
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +2 t/ga FG	30,5	30,4	32,0	36,6	30,3	26,5
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +4 t/ga FG	31,6	30,5	32,6	36,7	31,4	27,4


Tuproqda almashuvchan kaliyning eng yuqori miqdori 30 t/ga go'ng hamda 2 va 4 t/ga me'yordagi fosfogipsni mineral o'g'itlarning N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ fonida qo'llanilganda kuzatilib, 15 may sanasida ikkala variantda ham almashuvchan kaliy miqdori tuproqning haydov qatlamida mos ravishda 290-300 mg/kg ni tashkil etib, o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantiga nisbatan 90-100 mg/kg ga, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ variantiga nisbatan 40-50 mg/kg ga yuqori bo'ldi (3-jadval).

3-jadval

Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi almashuvchan kaliy (K₂O) miqdorining o'zgarishiga ta'siri (2020-2022 yy.)

№	Tajriba variantlari	K ₂ O miqdori, mg/kg tuproqda					
		15.04	15.05	15.06	15.07	15.08	15.09
1	Nazorat	190	200	180	180	181	171
2	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	237	250	250	230	223	212
3	30 t/ga go'ng	222	240	240	230	223	223
4	2 t/ga FG	200	220	200	190	201	202
5	4 t/ga FG	200	220	200	190	212	202
6	30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	230	250	250	240	243	241
7	30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	235	250	250	250	251	243
8	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng	265	280	300	280	273	262
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	275	290	310	300	282	273
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	280	300	320	310	291	282
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +2 t/ga FG	245	260	260	240	233	223
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +4 t/ga FG	245	262	260	240	233	223

Tuproqning muhim agrokimyoviy ko'rsatkichlardan biri uning muhit reaksiyasi (pH) hisoblanadi. Tuproq singdirish kompleksi (TSK) tarkibida natriy kationining ortib borishi tuproq muhiti pH ko'rsatkichini keskin ortishiga olib keladi. Tuproqdagi gumus moddalarining tezda erib ketishi tuproqning ishqoriyligi ortishi hisobiga yuzaga kelib vaqt o'tishi bilan tuproqning yuza qatlamlariga qora tus berib uning sho'rlanishi va sho'rtoblanishiga olib keladi. Olib borilgan tadqiqotlarda (2020-2022 yy) shu narsa aniq bo'ldiki, 30 t/ga go'ng va kimyoviy meliorant fosfogipsni kuzgi shudgor ostiga qo'llanilishi tuproq ishqoriyligini pasaytirib, pH ni neytrallik tomoniga siljishiga olib keldi (2-rasm).



2 - Rasm. Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni muhit reaksiyasi ko'rsatkichlari o'zgarishiga ta'siri

Masalan, o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamida pH ko'rsatkichi mos ravishda 7,83 va 8,28 bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich mineral o'g'itlar N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ me'yorda qo'llanilgan variantda 7,66 va 7,83 ni tashkil etib, nazorat variantiga nisbatan tegishli 0,17 va 0,45 ga kamayganligi ma'lum bo'ldi. Tuproq muhit ko'rsatkichlarining o'zgarishiga optimal ta'sir mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng hamda 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilganda yuzaga kelib mutonosib ravishda 7,41-7,54 va 7,18-7,38 qiymatga ega bo'ldi.

Dissertasiyaning «Tuproqdagi taksonomik va fiziologik guruh mikroorganizmlari sonining o'zgarishi» deb nomlangan paragraflarida mineral o'g'itlar fonida go'ng va fosfogips me'yorlarini tuproqda mikrobiologik jarayonlarning o'zgarishiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng bilan birgalikda 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan 9 va 10 variantlarda, bakteriyalar soni nazorat; N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅; 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan 1; 2; 4 va 5 varianlardagiga nisbatan 15 mayda 0-30 sm qatlamda mos ravishda 43; 17; 29; 27 va 45; 19; 31; 29 mln/g ga ortganligi kuzatildi (4-jadval).


4 - jadval

Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi bakteriyalar soniga ta'siri (2020-2022 yy.)

№	Tajriba variantlari	Bakteriyalar soni, mln/g tuproqda					
		15.04	15.05	15.06	15.07	15.08	15.09
1	Nazorat	12	14	27	29	22	25
2	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	23	40	42	50	45	50
3	30 t/ga go'ng	32	38	42	47	47	52
4	2 t/ga FG	20	28	34	36	30	32
5	4 t/ga FG	22	30	36	37	31	32
6	30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	37	45	53	50	50	57
7	30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	37	50	54	52	51	60
8	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng	45	46	57	64	59	66
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	50	57	68	75	65	77
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	53	59	70	78	65	79
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +2 t/ga FG	30	45	54	56	50	60
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +4 t/ga FG	35	48	54	58	52	62

Mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga fosfogips qo'llash tuproqda nitrifikatorlar sonini ortishini ta'minladi. Mineral o'g'itlar va 30 t/ga go'ng fonida fosfogipsni gektariga 2 va 4 tonnadan qo'llanilgan variantlarda 15 aprelda tuproqning haydalma qatlamidagi nitrifikatorlar soni mutonosib ravishda 50 va 52 ming/g tuproqda mavjud bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 15 avgustga kelib 85 va 89 ming/g tuproqda ekanligi aniqlandi. Bunda nitrifikatorlar soni o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantiga nisbatan mos holatda 29 va 31 hamda 61 va 65 ming/g ga ortganligi aniqlandi. Mineral o'g'itlar fonida 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantlarda tuproqdagi nitrifikatorlar soni, mineral o'g'itlar fonida 30

t/ga go'ng+2 va 4 t/ga FG qo'llanilgan variantlarga qaraganda biroz past bo'lishi kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni tuproqdagi nitrifikatorlar soniga ta'siri (2020-2022 yy.)

Dissertasiyaning «**Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosilining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri**» deb nomlangan to'rtinchi bobida mineral o'g'itlar fonida organik o'g'it go'ng va kimyoviy meliorant fosfogipsni g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosilining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan. Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni birgalikda qo'llanilganda g'o'za asosiy poyasining balandligi mineral va organik o'g'itlarning o'zi alohida qo'llanilgan variantlarga nisbatan yanada ortdi. Masalan, $N_{250}P_{175}K_{125}+30$ t/ga go'ng+2 t/ga FG variantida g'o'za asosiy poyasining balandligi 1 mayda 16,4 sm; 1 iyunda 44,3 sm; 1 iyulda 78,5 sm va 1 avgustda 117,7 sm, $N_{250}P_{175}K_{125}+30$ t/ga go'ng+4 t/ga FG variantida esa tegishli 17,3; 45,6; 79,6; va 119,5 sm ni tashkil etdi. Bunda $N_{250}P_{175}K_{125}+30$ t/ga go'ng variantiga nisbatan bu ikkala variantda o'simlik bo'yi tegishli 1,0; 2,7; 2,1; 3,5 sm hamda 1,9; 4,0; 3,2 va 5,3 sm ga ortganligi aniqlandi.

G'o'zaning hosil elementlaridan biri shona bo'lib, uning hosil bo'lishi iyun va iyul oylarida kuzatilib, bir tup g'o'za o'simligidagi shona soniga mineral va organik o'g'itlarning ta'siri aynan shu oylarda kuchli namoyon bo'lishi aniqlandi. Fosfogips, go'ng va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llashning organik va mineral o'g'itlarni o'zi alohida qo'llanilgan variantlarga nisbatan bir tup g'o'za o'simligidagi shona soni sezilarli yuqori bo'lishi kuzatildi. Masalan $N_{250}P_{175}K_{125}+30$ t/ga go'ng+2 va 4 t/ga FG qo'llanilgan variantlarda 1 iyunda shona soni mos ravishda 6,3 va 6,4 dona va 1 iyulda 13,5 va 14,6 dona bo'lishi aniqlandi.

G'o'zaning o'sish va rivojlanishida hosil bo'g'inlarining shakllanishi mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogips ta'siri natijasida sezilarli o'zgarishi kuzatildi. O'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida hosil bo'g'inlari soni 1-3 avgustda o'rtacha 8,78 donani tashkil qilgan bo'lsa, mineral o'g'itlar o'zi alohida qo'llanilgan varianda 15,3 donani, mineral o'g'itlar fonida 2 va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantlarda mos ravishda 20,7 va 22,3 donani tashkil etdi.

Tajribada fosfogips va mineral o'g'itlar birgalikda qo'llanilganda ularni alohida qo'llanilganga nisbatan bir tup g'o'za o'simligidagi ko'saklar soni birmuncha yuqori bo'lishi aniqlandi. Organik va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llash o'simlikdagi ko'saklar soniga ijobiy ta'sir qildi. Masalan, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+30 t/ga go'ng qo'llanilganda ko'saklar soni 1 avgustda 13,6 dona ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ me'yorda mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantga nisbatan 1,1 donaga, 30 t/ga go'ng qo'llanilgan variantga nisbatan 3,7 donaga ortishiga olib keldi. Eng asosiysi, fosfogips, go'ng va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llash tuproqning agrokimyoviy xossalriga ijobiy ta'sir qilib, bir tup g'o'za o'simligidagi ko'saklar soniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+30 t/ga go'ng+2 t/ga FG variantida 1 avgustda bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 16,7 dona bo'lgan bo'lsa, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+30 t/ga go'ng+4 t/ga FG qo'llanilgan variantda esa 17,9 donani tashkil etdi.

«Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni g'o'za hosildorligi va hosil sifatiga ta'siri» deb nomlangan paragrafda dala tajribasining o'rtacha uch yillik hosil miqdori va nazorat variantiga nisbatan qo'shimcha olingan hosil miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bunda o'rtacha eng yuqori hosildorlik mineral o'g'itlar fonida 30 t/ga go'ng va 4 t/ga fosfogips qo'llanilgan variantda qayd etilib, ushbu variantda qolgan variantlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga erishildi (5-jadval).

5 - jadval

Mineral va organik o'g'itlar hamda fosfogipsni paxta hosiliga ta'siri, u/ga (2020-2022 yy.)

№	Tajriba variantlari	Tajriba yillari			o'rtacha, s/ga	Nazoratga nisbatan qo'shimcha hosil	
		2020	2021	2022		s/ga	%
1	Nazorat	13,00	12,85	12,78	12,88	-	100
2	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	26,45	30,14	28,15	28,25	15,37	219,3
3	30 t/ga go'ng	21,12	24,72	22,05	22,63	9,75	175,7
4	2 t/ga FG	15,08	19,03	16,24	16,78	3,90	130,3
5	4 t/ga FG	16,05	21,48	17,16	18,23	5,35	141,5
6	30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	22,78	28,95	26,36	26,03	13,15	202,1
7	30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	23,55	30,28	27,26	27,03	14,15	209,9
8	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng	30,98	36,98	33,38	33,78	20,9	262,3
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+2 t/ga FG	34,94	39,91	36,08	36,98	24,1	287,1
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +30 t/ga go'ng+4 t/ga FG	36,64	42,83	38,66	39,38	26,5	305,7
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +2 t/ga FG	28,12	35,02	31,2	31,45	18,57	244,2
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +4 t/ga FG	30,25	38,28	33,56	34,03	21,15	264,2
	EKIF ₀₅	2,02	2,10	2,04			
	Sx%	2,33	2,43	2,57			

